

**MARKAZLASHGAN ICHIMLIK SUV TA'MINOTI YETIB
BORMAGAN QISHLOQ AHOLI PUNKTLARINI ICHIMLIK SUV BILAN
TA'MINLASH XIZMATINI KO'RSATISH BO'YICHA VAZIRLAR
MAKAMASI QARORI HAQIDA**

S.S.Akimbaeva.

*“Muhandislik kommunikაციyaları qurılışı va mantajı”
kafedrası stajor oqituvchisi*

Mazkur Nizom markazlashgan ichimlik suv ta'minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini ichimlik suv bilan ta'minlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha davlat ijtimoiy buyurtmalarini (keyingi o'rinlarda - davlat ijtimoiy buyurtmalari) berish hamda mazkur ijtimoiy buyurtmalarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalari ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish davlat dasturlari doirasida moliyalashtiriladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalarini amalga oshirish uchun grant va homiylik xayriyalari ham jalb etilishi mumkin.

Davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasida ochiladigan hisobvaraqlar orqali moliyalashtiriladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalari asosida amalga oshiriladigan loyihalarda aholini ichimlik suv bilan ta'minlash xizmatini ko'rsatishning minimal talablaridan tashqari boshqa ishlarni (xizmat ko'rsatishning innovatsion yondashuvlarini, ya'ni raqamlashtirish, masofadan boshqarish, suv sifatini ta'minlash va boshqa yo'nalishlardagi) moliyalashtirish uchun zarur mablag'lar homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat ijtimoiy buyurtmasi - markazlashgan ichimlik suv ta'minoti yetib bormagan aholi punktlarini ichimlik suv bilan ta'minlash xizmatini ko'rsatish

loyihalarini amalga oshirish uchun Vazirlik hamda loyiha boshqaruvchisi o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan belgilangan ishlarni bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga qaratilgan davlat topshirig'i;

ichimlik suv ta'minoti tashkiloti - davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida tashkil etilgan, faoliyatining asosiy turi iste'molchilarga ichimlik suv ta'minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqari bo'yicha xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti.

. Markazlashgan ichimlik suv ta'minoti yetib bormagan qishloq aholi punktlarini ichimlik suv bilan ta'minlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha davlat ijtimoiy buyurtmalari ushbu Nizomga ko'rsatilgan sxema asosida amalga beriladi.

Bosqich	Chora-tadbirlar	Mas'ullar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat
1-bosqich	Davlat ijtimoiy buyurtmalari dasturi va manzilli ro'yxatini shakllantirish	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Markazlashgan ichimlik suv ta'minoti yetib bormagan aholi punktlarini aniqlash va ularning ro'yxatini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan ro'yxatdagi aholi punktlaridagi aholining davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasiga o'z ulushi bilan ishtirok etishini o'rganish. 3. Shakllantirilgan ro'yxatlarni xalq deputatlari Kengashlariga muhokamaga kiritish. 4. Yakuniy manzilli dasturni shakllantirish. 	<p>Har yili 1-aprelga qadar</p> <p>Har yili 15-aprelga qadar</p> <p>Har yili 1-mayga qadar</p>

Har yili 1-aprelga qadar davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida ichimlik suv ta'minoti xizmati bilan ta'minlashning kelgusi yillik manzilli dasturlari Vazirlik tomonidan shakllantiriladi va O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish bo'yicha belgilangan tartibda taqdim etiladi

Vazirlik davlat ijtimoiy buyurtmasining manzilli dasturlarini shakllantirishda aholi yashash punktlarida ichimlik suv ta'minoti obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish zarurati hamda ularning joylashuvi bo'yicha keng jamoatchilik fikrini o'rganadi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi dasturi quyidagi mezonlar asosida shakllantiriladi:

Tanlanayotgan aholi punkti markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan bo'lishi;

ulush qo'shishga hamda homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishiga aholining aksariyat qismining roziligi;

tanlanayotgan aholi yashash punkti va unga tutash yoki yaqin hududda ichimlik suv ishlab chiqarish uchun suv manbalarining mavjudligi hisobga olinganligi.

Loyiha boshqaruvchisini tanlash tartibi

Vazirlik har yili davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish haqidagi e'lonni tanlov o'tkazilishidan kamida 30 kun oldin ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, elektron ommaviy axborot vositalari hamda o'zining Internet butunjahon axborot tarmog'idagi o'z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Jamoatchilik kengashi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

loyiha bo'yicha bajarilayotgan ishlar umumiy holati va sifatini o'rganadi;

aholi punktida ichimlik suv ta'minoti xizmatini yo'lga qo'yish uchun aholi tomonidan qo'shilishi mumkin bo'lgan ulush miqdoriga aniqlik kiritadi;

kelgusida ushbu aholi punktiga xizmat ko'rsatuvchi ichimlik suv ta'minoti tashkilotini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatadi;

ichimlik inshooti hamda tarmoqlarni qurish, rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilganda, pudrat tashkiloti tomonidan olib kelinayotgan qurilish materiallari sifatini baholaydi va loyiha boshqaruvchisiga ma'lumot taqdim etadi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida barpo etilgan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimlarini (inshootlarini) foydalanishga topshirish tartibi

Jamoatchilik kengashi tomonidan ichimlik suv ta'minoti tashkilotini tashkil etish bo'yicha hududdagi aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borib, bu turdagi tashkilotni tashkil etish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish hamda tegishli davlat organlariga topshirishga to'liq ko'maklashiladi.

31. Loyiha boshqaruvchisi davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida amalga oshirilgan ichimlik suv ta'minoti obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlangandan so'ng, Vazirlar Mahkamasining "Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 20-apreldagi 200-son qaroriga asosan ichimlik suv ta'minoti tashkilotiga foydalanish uchun topshiradi.

Tashkil etilgan ichimlik suv tashkilotlari tomonidan ichimlik suv xizmati uchun birinchi marotaba belgilanadigan to'lovlar miqdori (tariflar) loyiha boshqaruvchisi tomonidan belgilangan tartibda hisob-kitob qilinib, joylarda tashkil etilgan umumiy yig'ilishga topshiriladi va umumiy yig'ilish bayoniga asosan ma'qullangandan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga tasdiqlash uchun kiritiladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida barpo etilgan ichimlik suv ta'minoti tizimini (inshootlarini) samarali ekspluatatsiya qilinishi Vazirlik tomonidan muntazam ravishda nazorat qilinadi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida ichimlik suv ta'minoti xizmatini ko'rsatish bo'yicha yuzaga kelgan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. T.Abdullaev. "Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlarini loyihalash", TAQI 1998 y
2. T. Abdullaev " Shahar ichimlik suvini loyixalash" TAQI 2000 y
3. A.,Soatov, A.N. Gadaev, G.S. Boboeva "Suv qabul qilish inshootlari", SamDAQI 2005 y.

4. U.T.Zokirov, E.S.Buriev “Aholiga ichimlik suv tayyorlash texnologiyasi” TAQI 2013 yil.
5. Карюхин Т.А., Гурбанова И.Н. «Контроль качества воды». М: Стройиздат 1977.
6. Правочник по эксплуатации систем водоснабжения, водоотведения и газоснабжения. под ред. С.М.Шифрина-Л: Стройиздат 1981 й
7. Брежнев В.И., Воробьев В.Ф. «Эксплуатация водопроводных сооружений» - М: Стройиздат 1991.
8. <https://lex.uz/>